



YOSHLAR KUNI – KELAJAK BUNYODKORLARIGA BO'LGAN ISHONCH RAMZI !

Musakhanova Gulmira Sobirjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi e-mail: musaxonovagulmira3@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston yoshlarining 2017-yildan boshlab erishgan yutuqlari, davlat siyosatida tutgan o'rne, ularga berilayotgan imkoniyatlar yoritilgan. Ayniqsa, ta'lim, siyosiy faollik, tadbirkorlik, ilm-fan, sport va madaniyat sohalarida yoshlarning muvaffaqiyati va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor haqida fikr yuritiladi. "Yoshlar kuni"ning tarixiy va ma'naviy ahamiyati ochib beriladi. Yoshlarga bo'lgan ishonch ularning Vatan ravnaqidagi o'rnini mustahkamlab, jamiyatning har bir sohasida yetakchilikka olib chiqayotganligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, mustaqillik, ishonch, ta'lim, siyosat, tadbirkorlik, sport, innovatsiya, imkoniyat, taraqqiyot*

Аннотация: *В данной статье освещаются достижения молодёжи Узбекистана с 2017 года, их роль в государственной политике, предоставленные им возможности. Особое внимание уделено успехам в образовании, политической активности, предпринимательстве, науке, спорте и культуре. Раскрывается историческое и духовное значение Дня молодёжи. Подчёркивается, что доверие к молодёжи укрепляет их вклад в развитие страны и выводит их на лидирующие позиции в обществе.*

Ключевые слова: *молодёжь, независимость, доверие, образование, политика, предпринимательство, спорт, инновации, возможности, развитие*

Annotation: *This article highlights the achievements of Uzbek youth since 2017, their growing role in state policy, and the broad opportunities provided to them. It focuses on success in education, political participation, entrepreneurship, science, sports, and culture. The historical and spiritual importance of Youth Day is revealed. The article emphasizes how the state's trust in youth strengthens their position as leaders in all areas of society and contributes to national progress.*

Keywords: *youth, independence, trust, education, politics, entrepreneurship, sports, innovation, opportunities, development*

Har bir xalqning ertangi kuni, ravnaq topgan istiqboli, yuksalish va taraqqiyot yo'lidagi mustahkam poydevori – bu, avvalo, yosh avlodidir. Shu bois har bir davlat o'z yoshlariga suyanch tog'idek tayanadi, ularning kuchi, bilimiga, g'ayrat va salohiyatiga ishonadi. O'zbekiston Respublikasi ham yoshlarni jamiyatning eng faol, ijodkor va bunyodkor qatlami sifatida e'tirof etadi. Aynan shu maqsadda 30-iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlanmoqda. Bu sana – shunchaki bayram emas. 2017- yilning 30 iyunida bo'lib o'tgan "Kamolot " yoshlar harakatining IV



qurultoyida ¹⁷Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan e'tirof etilgan . Va hozirgacha har yili davlatimiz tomonidan ushbu kun bir ajib tantana sifatida keng nishonlanib kelinadi . Bu – “yuksak ishonchning ifodasi”, e'tirofning timsoli, kelajak bunyodkorlariga atalgan fidokorona mehr va ishonchning ramzidir. Bu kun – yoshlar qalbiga umid uchqunini soldi, orzularini parvozga undadi, ko'zlarini porlatdi.

2017-yil O'zbekiston tarixida tub burilishlar, yangi siyosiy irodaning namoyon bo'lgan davri sifatida esda qoldi. Aynan shu yildan boshlab yurtimizda yoshlar masalasiga tamoman yangicha yondashuv asosida qarala boshlandi. Avvalambor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarga bag'ishlab yo'llangan aniq siyosiy e'tibor – ularning hayoti, ta'limi, bandligi, ijtimoiy himoyasi va kelajagi davlat siyosatining markaziga aylantirildi. Yurtboshimiz “Yoshlar – bizning ertangi kunimiz, orzu-umidlarimizning davomchisi” degan fikrni amalda namoyon qila boshladi. Shu yildan boshlab mamlakatimizda ilk bor “Yoshlar ittifoqi” tashkil etildi. Bu tashkilot minglab yoshlar qalbiga umid, ishonch, mehr va imkoniyat olib kirdi. Endilikda har bir o'g'il-qizning orzusi, muammosi va takliflari davlatning bevosita e'tiborida bo'ldi. Maktab, litsey, kollej, oliy ta'lim muassasalari hamda mahallalardagi yoshlar bilan ishlash ishlari jonlantirildi.

“Yoshlar daftari¹⁸” tizimi orqali minglab ishsiz, ijtimoiy yordamga muhtoj yigit-qizlarga ko'mak berila boshlandi. Bu nafaqat moddiy yordam, balki yoshlar orasida o'zini jamiyatga kerakli inson sifatida his qilish tuyg'usini uyg'otdi. Ta'lim sohasida boshlangan keng qamrovli islohotlar esa minglab yoshlarning hayotini o'zgartirdi. Oliy o'quv yurtlariga kirishdagi test sinovlarining ochiqligi, adolatligi, kontrakt miqdorlarining bosqichma-bosqich kamaytirilishi, talabalar uchun stipendiyalar tiklanishi – bularning barchasi yoshlar hayotini tubdan ijobiy tomonga o'zgartirdi. Shu yillarda O'zbekiston yoshlarining xalqaro miqyosdagi ishtiroki, ishonchi va obro'si ortdi. Shu bilan birga, “Tashabbusli byudjet” ¹⁹kabi platformalar orqali yoshlar endi o'z hududidagi ijtimoiy masalalarning hal qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsata boshladi. Endi ular tom ma'noda siyosiy va ijtimoiy faollikda yetakchi qatlamga aylandi.

Yana bir muhim jihat – yoshlarning tadbirkorlik salohiyati oshdi. Kreditlar, grantlar, subsidiyalar orqali ko'plab yoshlar o'z biznesini yo'lga qo'yib, nafaqat o'zini, balki boshqalarni ham ish bilan ta'minlay boshladi. Endilikda yoshlik – bu faqat orzu qilish emas, balki orzularni amalga oshirish zamoni bo'ldi. Bugungi kunda ko'chada yurib bir kitob o'qiyotgan, kafeda startap ustida ishlayotgan, sport zalida mashq qilayotgan yoki xalqaro forumda O'zbekiston bayrog'ini hilpiratayotgan har bir yosh – Mustaqillik mevasidir. 2017-yil 30-iyun kuni O'zbekistonda “Yoshlar kuni” rasmiy bayram sifatida e'tirof etilishi mamlakat siyosatida tub burilish yasadi. Bu sananing muhrlanishi – davlat tomonidan yosh avlodga bildirilgan ishonch va e'tibor timsoli bo'ldi. Shundan so'ng, yoshlar bilan ishlash bo'yicha tizimli va aniq huquqiy asoslar

¹⁷ <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/33187>

¹⁸ <https://yoshlardaftari.uz/>

¹⁹ <https://openbudget.uz/boards>



shakllana boshladi. 2017-yil 5-iyulda Prezident tomonidan imzolangan PF-5106-sonli ²⁰qaror bilan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etildi. Ushbu qaror yoshlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini institutsional darajada mustahkamlab berdi. Aynan shu yildan boshlab yoshlarga oid davlat siyosati mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlat rahbarining 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-sonli ²¹farmoni bilan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi hayotga tatbiq etilib, yurt bo'ylab minglab yoshlarning ta'lim, bandlik, tadbirkorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi muammolarini hal etishga xizmat qila boshladi. Xususan, bu dastur doirasida 20 mingdan ortiq yosh tadbirkorga jami 3,5 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kredit, grant va subsidiyalar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yilning "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi esa bu siyosat izchil davom etayotganidan dalolatdir. Ta'lim sohasida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. 2017–2024 yillar davomida 70 dan ortiq xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan memorandumlar imzolandi. Natijada, "El-yurt umidi", "Ulug'bek vorislari", "Ijod maktablari", "Temurbeklar maktabi" kabi loyihalar orqali minglab yoshlar chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Shuningdek, 2023-yilga kelib, 150 mingdan ortiq yoshlar IELTS, TOEFL, CEFR kabi xalqaro imtihonlarni topshirib, bilimni sertifikatlash orqali grantlar va stipendiyalar olishga erishdi.

Yoshlarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida "Yoshlar daftari" tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizim orqali 1 milliondan ortiq ishsiz va ehtiyojmand yoshlar davlat tomonidan turli ko'mak turlariga ega bo'ldi. "Mening biznesim", "Yosh fermer", "Startup loyihalar" kabi dasturlar doirasida 10 minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qiluvchi xotin-qizlar uchun alohida grantlar, kasbga o'qitish kurslari va ishlash imkoniyatlari yaratilgani gender tengligi masalasiga jiddiy yondashuvning isboti bo'ldi. Yoshlar faqat iqtisodiy yoki ta'lim sohasida emas, balki sport, fan va siyosatda ham yetakchi kuch sifatida shakllanib bormoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlari xalqaro olimpiadalar, fan tanlovlari va sport musobaqalarida 1000 dan ortiq medalni qo'lga kiritdi.

Bunda robototexnika, IT texnologiyalar, sun'iy intellekt va ekologiya kabi zamonaviy sohalar alohida ajralib turadi. Masalan, 2023–2024-yillarda O'zbekistonlik yoshlar matematika, informatika va fizika bo'yicha xalqaro fan olimpiadalarida o'ndan ortiq oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, bokschilarimiz 2024-yilgi Parij Olimpiadasida 13 ta oltin medal bilan tarixiy natijaga erishdi. ²²Siyosiy faollik ham yoshlar orasida sezilarli darajada oshgan. 2020-yildan boshlab parlamentning har ikki palatasida "Yoshlar parlamenti" faoliyat yuritib, qonun ijodkorligiga faol yoshlar jalb qilinmoqda. "Tashabbusli byudjet" va "Talabalar senati" orqali yoshlar o'z muammolarini mustaqil hal etish imkoniga ega bo'ldi. 2023-yildan buyon bir milliondan ortiq yoshlar to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etmoqda. Yuqoridagi barcha

²⁰ <https://lex.uz/docs/-3255680>

²¹ <https://lex.uz/docs/-3826820>

²² <https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/11/historical-olympiad/>



fakt va ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, O'zbekistonda yoshlarga bo'lgan davlat siyosati nafaqat huquqiy hujjatlar bilan, balki real hayotda ham o'z samarasini bermoqda. Yoshlarga bildirilgan ishonch ularning orzularini haqiqatga aylantirish imkonini berdi. Bugun ular nafaqat kelajak, balki bugunning ham bunyodkor kuchi ekanligini isbotlamoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Yoshlar – bizning ertangi kunimiz, orzu-umidlarimizning davomchisidir." Shu sabab, "Yoshlar kuni" har yili faqatgina bayram emas, balki davlatimizning yosh avlodga bo'lgan e'tibori, mehr-muhabbati va ishonchining yorqin namunasidir. Ular – endi faqat kelajak emas, bugunning ham kuchidir. O'zbekiston yoshlari orzusini aytishga emas, uni amalga oshirishga haqli bo'ldi. Endi ular e'tibor markazida, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishida.

Bu – mustaqillik bergan eng katta ne'matdir. Yoshlarga ishonch – bu kelajakni o'zgartirish demak. Bugun yoshlar nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faollikda ham yetakchiga aylanmoqda. Ular – qonunlarni yaratishda, jamiyatdagi muammolarni bartaraf etishda, innovatsion g'oyalar bilan chiqish qilishda faol ishtirok etmoqda. "Yoshlar – kelajagimiz bunyodkori" degan hayotiy haqiqat bugun hayotda o'zining amaliy isbotini topmoqda. Bugungi islohotlar zahirida ham aynan yoshlar turibdi. Oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi, xorijda tahsil olish uchun berilayotgan grantlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari, "Yoshlar daftari" orqali yordam mexanizmlari – bularning barchasi yurtimiz yoshlari uchun yaratilgan ulkan imkoniyatlardir.

Bir necha 10 yilliklar ilgari bu imkoniyatlarni hatto tasavvur qilish ham mushkul edi. Ammo davlatimizning o'ziga xos siyosati tufayli bugungi kunda har bir yosh avlod o'zi hohlagan yo'nalishda bilim olishi, ishlashi hatto chet davlatlarida ta'lim olishi mumkin. Bu yoshlarga bo'lgan yuksak ishonch namunasi. Yoshlar faqatgina "xalq kelajagi" emas, balki "xalq umidi" bo'lish yo'lida faol qadam tashlamoqda. O'zbekiston yoshlari bugun xalqaro olimpiadalarda, sport musobaqalarida, fan va texnologiyalar yo'nalishida, san'at va madaniyatda ham yuksak yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Va O'zbekiston nomini dunyoga tanitishmoqda. Bugungi kunda deyarli har bir yo'nalishlarda ilg'orlarimiz dunyoning turli hududlarida bo'lib, g'alaba qozonib O'zbekiston farzandiman deya "jar" solishmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, Prezidentimiz tomonidan 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili"²³ deb e'lon qilindi va nafaqat ushbu yil bir qancha yillar davomida yoshlarga yaratib berilgan va hozirgacha davom etayotgan sa'y harakatlarga hayron qolmasdan iloji yo'q kishining. Ular bugunning fidoyilari, ertaning esa yetakchilari, rahbarlari, olimlari, fidokor o'g'il-qizlaridir. Har bir yurakda bir orzu, har bir ko'zda porlayotgan ishonch – bu Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan yoshlar avlodining ichki kuchidir. Ularning ovozi – kelajakka atalgan qasamyoddur. Ularning nigohi – mustaqil yurtimizni nurafshon kelajakka boshlayotgan umid nuri bo'lib tovlanmoqda. Shu sabab, "Yoshlar kuni" biz uchun oddiy sana emas – u bizga har

²³ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/01/year-2024/>